XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy. 190500, tel.: (+99876) 41-31-400

2023 - yil 18 - oktabr VI-79-105-8-111-K/23 Denov tuman hokimligi

Denov tumanidagi Ko‘hsor mfyni nomini qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2023-yil 24-maydagi 05-05/07-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2023-yil 14-avgustdagi 10209-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertiza xulosasini ko‘rib chiqib hamda doimiy komissiyada bildirilgan fikirlardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman komissiyasining 2023-yil 24-maydagi 05-05/07-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Geografik obyektlarni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2023-yil 14-avgustdagi 10209-sonli Respublika Kadastr agentligining davlat ekspertiza xulosasi ma’qullansin.

2. Tumandagi Ko‘hsor mfyning qayta nomlangan nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo‘limi (U.Aliqulov), tuman qurilish bo‘limi (M.So‘fiyev), Denov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (I.Ismoilov) va davlat xizmatlari markazi (O.Xolmirzayev) birgalikda Ko‘hsor mfyning yangi nomini ro‘yxatdan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman kadastrlar palarasi bo‘limi (T.Ismoilov) tumandagi qayta

nomlangan mfyni nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tumandagi qayta nomlangan mfyni nomi Kengash qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

6. Ushbu qarorni tuman hokimligi Axborot xizmati (F.To‘rayeva) tuman hokimligining ijtimoiy saytida va “Chag‘oniyon” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Ch.Murodov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi o'rinbosari **A.Narzullayev**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2023-yil 18-oktabrdagi
VI-79-105-8-111-K/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi tomonidan ekspertiza berilgan Denov tumanidagi Ko‘hsor mfyni nomini qayta nomlash to‘g‘risida.

T.R	Geografik obyektni turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
1	Mahalla	Denov tumani	**Ko‘hsor**	**Kuyovsuv**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.